

5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR

**MUTAXASSISLIK FANLAR MODULINI O'QITISHNING O'ZIGA XOS  
XUSUSIYATLARI**

**G'aniyev Fayyoz Nizom o'g'li**

*Toshkent davlat transport universiteti magistri*

**Nazarova Nilufar Jo'rayevna**

*Toshkent davlat transport universiteti katta o'qituvchisi*

**Muratova Dildora Abdumannapovna**

*Toshkent davlat transport universiteti dotsent v.b.*

**Annotatsiya.** Maqolada kadrlar tayyorlash sifati ta'lism sifatiga muvofiq bo'lishi lozimligi, buning uchun ta'lism muassasalarida innovatsion faoliyatni olib borishga qodir bo'lgan yuqori malakali kadrlarni tayyorlash masalasiga bag'ishlanadi. Ta'lism tizimini modernizatsiyasini amalga oshirishda texnika oliy o'quv yurtlari talabalariga mutaxassislik fanlar bo'yicha modulli o'qitishning qulayliklari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** kadrlar tayyorlash, modulli o'qitish, reguliyativ, akkumulyativ, innovatsion faoliyat, modernizatsiya, o'quv dasturi, didaktik material.

Djim Kollinz ta'kidlashicha: "Buyuk kompaniyalarning rahbarlari qayta tashkil etish jarayonini o'z jamoasiga kerakli insonlarni olish va keraksiz insonlardan qutilishdan boshlagan. Shundan so'ng ular qaysi tomonga suzishni tanlaganlar. Asosiy g'oya barcha narsalarni kadrlar hal qiladi, nima degan so'zdan kim degan so'z muhimroqdir. Chunki kadrlar bu strategiya, bu tashkiliy tuzilma, bu taktika. Kompaniyalar bugungi kunda yangi sifat bosqichiga o'tish uchun o'z asoslarini yaratishi zarur. Mening fikrimcha bu savolning fundamental javobi kadrlar masalasi hisoblanadi[1]. Bir so'z bilan aytadigan bo'lsak, Djim Kollinzning ushbu fikrlari bugungi kunda kadrlar tayyorlash sifati ta'lism sifatiga muvofiq bo'lishi lozim degan so'z bilan mos keladi. Buning uchun ta'lism muassasalarida innovatsion faoliyatni olib borishga qodir bo'lgan yuqori malakali kadrlarni tayyorlash lozim. Bir so'z bilan aytganda kadrlarni puxtarloq tayyorlamasdan turib, ularni qadriga yetmasdan turib biror bir sohada muvaffaqiyatga erishib bo'lmaydi.

Agarda, XXI asrda individual ta'lism olish sifatini ta'minlashga ehtiyoj oshib borilayotganligiga e'tibor qaratsak, bunda ta'lism tizimini modernizatsiyasini amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Shu bois bo'lsa kerak, mamlakatimizda modernizatsiyalash masalasiga alohida e'tibor qaratilib, jamiyatning barcha sohalarida bo'lgani kabi oliy ta'lism tizimida ham bir qator ijobjiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Aynan bu jihat yoshlar ta'lism–tarbiyasi masalasiga fan va texnika yutuqlaridan maqsadli foydalanishni taqozo etadiki, bu borada modulli o'qitish shular jumlasidandir. Bugungi kunda modulli o'qitishni turli variantlari yaratilgan bo'lsada, bu tushuncha (ya'ni, modulas), meyor degan ma'noni anglatgan[2]. Me'yor deganda, "obyektning sifat

va miqdoriy jihatlari o‘zaro bog‘liqligini anglatadigan, mazmun va shakl, imkoniyat va voqelik o‘rtasidagi zaruriy uyg‘unlik ta‘minlanishini”[3] tushunish lozim. Ya’ni, o‘quv dasturi asosida o‘qitilayotgan predmet (kurs) doirasida uzatilayotgan axborot hajmi talaba tomonidan idrok etilib, undan foydalanish malakasiga ega bo‘lishni taqozo etadi. Bu masalaga pedagogik nuqtai nazar asosida yondashganda, talabani kasbiy faoliyatga tayyorlashga qaratilganligini, bunda harakatlar va maqsadlarni navbatma-navbat bajarilishi nazarda tutilganligini kuzatish mumkin. Shuning uchun bo‘lsa kerakki, 1965 yilda xalqaro mehnat tashkiloti (MOT) Turinda (Italiya) Xalqaro modulli o‘qitish markazini tashkil etgan. Markaz o‘z ishini aniq ixtisoslik bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlab, bunda mehnat bozorini monitoringining xulosaviy natijalariga e’tibor qaratib, buyurtmachini talablariga tayangan holda kasbiy ta’limni olib borishni yo‘lga qo‘ygan.

O‘z navbatida modul uch turga bo‘linadi, bular:

- a) alohida fan bo‘yicha modul;
- b) fanlararo modul;
- v) fan bloklari bo‘yicha modul.

Bunda har bir modulning maqsadi qamrovligi jihatidan bir-biridan ajralib turadi. Shu jihatdan olib qaraydigan bo‘lsak, texnik va ijtimoiy-gumanitar fanlarini texnika sohasidagi oliy o‘quv yurtlariga modulli o‘qitishning afzalligi shundaki, bunda mutaxassislik fanlar bo‘yicha o‘quv rejalar va kerakli didaktik materiallar modulning muayyan qismlari asosida tuziladi. Muayyan qismlar esa, mazmun jihatidan yakunlangan bo‘lishi lozim. Mutaxassislik ta’lim sifatini ta‘minlash nuqtai nazari bo‘yicha masalaning quyidagilarga:

- mutaxassislik fanlar modulining tuzulishi (fanini o‘qitish nechta moduldan iboratligi);
- mutaxassislik fanlarning mazmuni (bunda texnika fanlarning qaysi mutaxassisliklarda o‘qitilishiga, kasbiy bilimlarni yetkazishga, kasbiy ko‘nikma va malakalarni tarkib toptirishga);
- mutaxassislik fanlar modulida qo‘llaniladigan nazorat shakllari (nazariy mexanikadan uzatilgan bilimlarni o‘zlashtirilganligiga);
- modulda keltirilgan o‘quv vazifalarining mazmuniga (mutaxassislik fanlarda muammoli mashqlarni nazariya va amaliyot bilan bog‘liqligiga) e’tibor qaratiladi.

Texnika oliy o‘quv yurtlari talabalariga mutaxassislik fanlar bo‘yicha modul yuzasidan yo‘riqnomasi (sillabus, modulli o‘qitishning tarkibiy qismi) bilan ta‘minlanadi. Bu o‘z navbatida uning tarkibiga kiritgan materiallar bilan tanishish uchun imkoniyat yaratibgina qolmasdan, foydalaniladigan adabiyotlar ro‘yxati, mustaqil bajaradigan vazifalar (esse, referat, tahliliy sharh va b.) majmuasi va unga qo‘yiladigan talablar bilan tanishish imkonini beradi. Shu bilan birga yana talaba uchun qulay tomoni shundaki, o‘qituvchi bilan mavzu yuzasidan muloqotga kirish uchun elektron manzil, murojaat etish formasi va vaqtani aniq ko‘rsatilgan bo‘ladi.

Mutaxassislik fanlarni modulli o‘qitishda ta’lim maqsadi ustunlik qilib, asosiy e’tibor talabalarni faoliyatga tayyorlashga qaratilgan bo‘ladi. Shu sababli, mutaxassislik fanlarni modulli o‘qitishning qulayliklari sifatida quyidagilarni ko‘rsatib o‘tish mumkin:

- didaktik materiallar majmuasiga ega bo‘lgan talaba, mutaxassislik fanlarni mustaqil o‘zlashtirish uchun katta imkoniyatlarga ega bo‘ladi;
- o‘qituvchining fanlardan ma’ruza o‘qish vazifasi maslahat berish vazifasi bilan mushtarak tarzda kechib, talabalar uchun uzatilayotgan axborotni passiv idrok etish holati kamayadi;
- texnika yo‘nalishida ta’lim oluvchi talabalarni o‘quv materiallarini o‘zlashtirilganligini belgilashda, ya’ni har bir modul tugashi bilan oraliq nazorat o‘tkazish nuqtasi belgilab (uzatilgan axborotlarni o‘zlashtiriganlik darjasini belgilab olinadi va bu esa o‘z navbatida galdegisi ta’limiy vazifalarni belgilash uchun imkon yaratadi) olinadi;
- talaba fanlarni o‘zlashtirish jarayoni qadamba-qadam oson kechadi. Ya’ni, soddadan murakkabga, umumiyligidan xususiylikka o‘tishda asosiy rol talabaning zimmasida bo‘ladi;
- mutaxassislik fanlarni modulli o‘qitishda mutaxassisni tayyorlashda sarflanadigan vaqt va mablag‘ maqsadli sarflanadi (uzatiladigan sotsiologik axborotlarni qachon? qayerda? qaysi tartibda qo’llash amaliyotning talablaridan kelib chiqqan holda belgilab olingan bo‘ladi);
- talabani inson-mutaxassis sifatida kasbiy loyiqlik darajasini ta’minalash ta’lim davomida ta’minalanadi (nazariya va amaliyot birligi tamoyiliga amal qilinadi);
- istiqbolda talabani texnik sohadagi mutaxassis sifatida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi kafolatlanadi. Bu o‘z navbatida ta’lim muassasasining imijini, mutaxassisni kasbiy sifatlarini shakllanganligini ko‘rsatadi.

Ko‘rinib turibdiki, mutaxassislik fanlar ta’lim sifatini ta’minalash uchun pedagog shaxsi [7,9,10] akkumulyativligi (lot. accumulate -to‘planish) va regulyativligi (tartibga soluvchi) jihatlari bilan hal etuvchi rolni egallaydi. Chunki har qanday modulni tuzish yoki yangi pedagogik texnologiyalarni tadbiq etishda pedagogning kasbiy tayyorgarlik masalasi bosh pedagogik-psixologik omil sifatida ishtirot etadi [4,5,6,8,11,12,13,14,15,16,17,18,19,20,21]. Shu sababli, modulli o‘qitishda ta’lim sifatini ta’minalashga erishish maqsadida kasbiy ta’lim kabi fan tarmoqlarining yutuqlarini inobatga olib, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta’minalash yo‘lida inson-mutaxassis shaxsini tarbiyalash lozim.

#### **REFERENCES:**

1. Джим Коллинз. От хорошего к Великому. - Москва, 2011.- С.78.
2. Словарь иностранных слов. – Москва, 1988. - С. 318-319.

5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR

3. Falsafa: qomusiy lug‘at. – Toshkent, 2004. -B. 259.
4. Muratova, D. A., & Jumaniyazova, N. S. (2018). BERUNIY AND EUROPE. *Теория и практика современной науки*, (5), 24-26.
5. Sabirovna, A. N., & Juraevna, N. N. (2022). Important Aspects of the System of Social Work for Young People in Uzbekistan. *International Journal of Development and Public Policy*, 2(6), 37-41.
- 6 Abdusalamovna, A. S., & Juraevna, N. N. (2022). A Strong Family as a Determining Development of Society. *International Journal of Development and Public Policy*, 2(6), 31-36.
7. Рахмонов, Д. А., & Назарова, Н. Ж. (2022). ЎЗБЕКИСТОНДА ПЕДАГОГИК ХОДИМЛАРНИНГ ҲУҚУҚИЙ МАҚОМИНИ БЕЛГИЛАШНИНГ ИНСТИТУЦИОНАЛ АСОСЛАРИ. *Academic research in educational sciences*, 3(TSTU Conference 2), 377-384.
8. Muratova, D. A. (2020). Socio-cultural directions of human transformation in the scientific development of uzbekistan. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(S1), 974-982.
9. Jo‘rayevna, N. N. (2022). KADRLAR KASBIY SIFATINI TAKOMILLASHTIRISHDA PEDAGOGIKANING O ‘RNI. *PEDAGOG*, 1(4), 109-111.
10. Navruzbek Shuhrat O’G’Li Jurakulov, Umar Muxiddin O’G’Li Qurbonov, & Aqida Abdujabbarovna Dadashева (2022). YOSHLARNING HUQUQIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING MUAMMOLARI. *Academic research in educational sciences*, 3 (TSTU Conference 2), 312-315.
11. Темирова, С. В., & Назарова, Н. Ж. (2022). ЁШЛАРНИНГ ҲУҚУҚИЙ МАДАНИЯТИНИ ЮКСАЛТИРИШДА КОНСТИТУЦИЯНИНГ АҲАМИЯТИ. *Academic research in educational sciences*, 3(TSTU Conference 2), 353-356.
12. Feruza Oy Kenja Qizi Abdinazarova, & Aqida Abdujabborovna Dadasheva (2022). FUQAROLIK HUQUQI: O’ZBEKISTON RESPUBLIKASINING YANGI KONSTITUTSIYASI VA XORIJIIY DAVLATLAR KONSTITUTSIYALARIDA. *Academic research in educational sciences*, 3 (TSTU Conference 2), 305-311.
13. Temirova, S. V., & Nazarova, N. J. (2022). YOSHLARNING RAQOBATBARDOSH KADR BO’LIB SHAKLLANISHIDA KONSTITUTSIYANING O ‘RNI. *Academic research in educational sciences*, 3(TSTU Conference 2), 349-352.
14. Харатова, Ш. Х., Назарова, Н. Ж., Абдукаримова, Г. Б., Рахимова, М. И., & Темирова, С. В. (2022). ВОЯГА ЕТМАГАН ЎСМИРЛАР БИЛАН ИШЛАШДА ОИЛА, МАҲАЛЛА, МАКТАБ ҲАМКОРЛИГИ МАСАЛАЛАРИ. *Uzbek Scholar Journal*, 11, 102-110.
15. Sheralevna, U. R., Juraevna, N. N., Baratovna, A. G., Vladimirovna, T. S., & Inamjanovna, R. M. (2022). EFFICIENT USE OF EDUCATIONAL

5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR

OPPORTUNITIES TO ENSURE THE COMPETITIVENESS OF YOUTH. *Uzbek Scholar Journal*, 11, 97-101.

16. Samarov, R. S., & Rakhmonov, D. A. (2016). Social work activity in providing the life of the society (functional-structural analysis). *Theoretical & Applied Science*, (7), 14-16.
17. Muratova, D. A. (2018). PSYCHIC GENOCIDE OF RELIGIOUS VIEV IN ZIGMUND FREYD RESEARCHES. *Teoriya i praktika современной науки*, (3), 37-39.
18. Saminjon o‘g‘li, M. S., & Jo‘rayevna, N. N. (2022). PEDAGOGIK FAOLIYATDA AXBOROT-KOMMUNIKATIV TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH. *PEDAGOG*, 1(4), 105-108.
19. Nazarova, N. (2020). *YOSHLARDA RAQOBATBARDOSHLIK SIFATLARINI SHAKLLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI*. O‘zMU Xabarlari.
20. Temirova, S. V., & Nazarova, N. J. R. (2022). SIYOSIY DEMOKRATIK DAVLAT BARPO ETISHNING HUQUQIY ASOSLARI. *Academic research in educational sciences*, 3(TSTU Conference 2), 357-360.
21. Muratova, D. A. (2022). Competence and Competency-Based Approach in Education. *Indonesian Journal of Innovation Studies*, 18.